

Hokimlar kelishuvi, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbaini amalga oshirish yo'li bilan 2020 yilga borib CO₂ chiqindilarini kamida 20% ga kamaytirishga ixtiyoriy ravishda olingan majburiyatga erishishda Yevropa Ittifoqining mahalliy, mintaqaviy va milliy hokimiyatlarini birlashtiruvchi asosiy tashabbusi hisoblanadi.

2008 yil ishga tushirilgandan boshlab Hokimlar Kelishuvi Evropa va boshqa davlatlarning mahalliy hokimiyat organlarida barqaror energiya dasturini rivojlantirish va amalga oshirishda rag'batlantiruvchi va ko'maklashuvchi yetakchi tashabbusga aylandi. Shu sababli Hokimlar Kelishuvi shaharlardagi yashash darajasining yaxshilash vs ekologik iqtisodiyotni o'sishiga o'z hissasini qo'shadi. Qanday qilib? Quvvatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy va iqtisodiy farovonlik darajasini yaxshilash va iqlim o'zgarishlariga bog'liq bo'lgan masalalarni yechish orqali. Lvov (Ukraina) va Tbilisi (Gruziya) shaharlarida joylashgan Hokimlar Kelishuvining yangi yaratilgan Sharqiy Ofisi 11ta mamlakatlarga ma'muriy, texnik va rag'batlantiruvchi ko'mak ko'rsatadi: Armaniston, Ozarbayjon, Belarus, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina va O'zbekiston.

Mahalliy hokimiyatlar asosiy hamkorlar sifatida

Shaharlar, shaharchalar va boshqa shaharlashgan hududlar iqlim o'zgarishlari oqibatlarini yengillashtirishda muhim rol o'ynashlari kerak, chunki ular dunyo miqyosidagi joriy CO₂ chiqindilarining 70% dan ko'proq qismi uchun mas'uldirlar. Mahalliy hokimiyat fuqarolarning hulqini o'zgartiradigan va davlat hamda xususiy shaxslarning manfattlarini muvofiqlashtiradigan ega bo'limdir. Mahalliy hokimiyat organlari qabul qilgan qarorlari hayot tarziga (masalan, energiya xizmatlarining arzonligi, toza havo) jiddiy va ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Majburiyat

Hokimlar Kelishuvi "yana bir boshqa kompaniya"gina emas, balki mahalliy hokimiyatlar tomonidan berilgan quvvatlar va iqlim o'zgarishlari oqibatlarini yengillashtirish sohasidagi aniq belgilangan maqsadlaega erishishga asoslarga va mahalliy hokimiyat o'z zimmasiga olgan jiddiy majburiyat hamdir. Bularning hammasini Hokimlar Kelishuvi milliy ustuvorlikka muvofiq mahalliy tarzda harakatni rag'batlantiruvchi ajoyib tashabbus bilan bajaradi. Shaharlarning majburiyatlari va maqsadlar sari qo'ygan qadamlari Qo'shma Tadqiqot Markazi – Yevropa Komissiyasining ichki ilmiy xizmati tomonidan qat'iy ravishda nazorat qilib boriladi.

O'zlarining ixtiyoriy ravishda olgan majburiyatlarining bir qismi sifatida shaharlar mahalliy barqaror quvvatlar siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan siyosiy va ma'muriy malakalarni rivojlantiradilar va Barqaror Energiya Harakat Rejasini (BQHR) Bryusseldagi Hokimlar Kelishuvi Ofisiga taqdim etadilar. Muhim barqaror quvvatlar harakatlarining ushbu batafsil sharhi Kelishuv imzolanganidan keyingi bir yil ichida taqdim etiladi. BQHR mahalliy darajada quvvatlar va iqlim sohasidagi maqsadlarga yetish uchun yo'l xaritalari vazifasini bajaradilar. 2014 yil fevral ma'lumotiga ko'ra 3300 BQHR taqdim etildi va shundan 1800 qabul qilingan.

O'sish

Tashabbus 5400 dan ortiq imzolovchilari bilan 50 ta mamlakatdagi mahalliy hokimiyatlarni o'z ichiga oladi – ulardan 80 dan ortiq Hokim Sharqiy Yevropa, Janubiy Kavkaz va Markaziy Osiyodan. Bundan tashqari o'zlarining mahalliy hokimiyatlarining majburiyati orqali Sharqiy Hamkorlik va Markaziy Osiyo davlatlarining 10 milliondan

ortiq fuqarolari Hokimlar Kelishuvida ishtirok etayaptilar.

Qo'llab-quvvatlash

Hokimlar Kelishuvi siyosiy (Yevropa Komissiyasi, Mintaqalar Qo'mitasi, milliy hukumatlar, mintaqaviy hokimiyatlar va xok.) va moliyaviy tashkilotlar (Yevropa Investitsiyalar banki, Yevropa taraqqiyot va rivojlantirish banki, xususiy banklar va xok.) tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlanishdan manfaat ko'ruvchi yetakchi mahalliy va mintaqaviy hokimiyat organlarining o'sib borayotgan xalqaro hamjamiyatidir.

Kelishuvni imzolovchilar Kelishuvning Milliy va Hududiy Koordinatorlari, Kelishuvni Qo'llab-quvvatlovchilar, Hokimlar Kelishuvi Ofislari va boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan ko'rsatiladigan kuchli qo'llab-quvvatlashva tarmoqlash imkoniyatlaridan manfaat ko'rishlari mumkin. Bundan tashqari boshqa mamlakatlarning ijobiy tajribalari mahalliy hokimiyatlarga o'z hukumatlari va hamkorlarini Hokimlar Kelishuviga qo'shilishga ishonitirishlariga yordam berishi mumkin.

Imzolovchilarga o'zlarining harakat rejalarini ishlab chiqishlarida yordam berish uchun bir qator uslublar va vositalar ishlab chiqilgan. Ular hozirda Sharqiy Yevropa, Janubiy Kavkaz va Markaziy Osiyodagi omzolovchilarning maxsus ehtiyojlari uchun moslashtirilayapti. Bundan tashqari Yevropa Komissiyasining Qo'shma Tadqiqotlar Markazi imzolovchilarda tug'ilishi mumkin bo'lgan texnik muammolarni hal qilish uchun Ingliz va Rus tillarida ekspert maslahatlari bilan ta'minlaydi. Shu orqali u Hokimlar Kelishuvi Ofislari tomonidan beriladigan yordamni to'ldiradi.

Ta'siri

Kelishuvning muvaffaqiyati uni imzolovchilar tomonidan ko'riladigan aniq qadamlar va tadbirlar bilan belgilanadi. O'zlrining BQHR da bayon qilingan harakatlarni amalga oshirish orqali mahalliy uyushmalar energiya xizmatlaridan yaxshiroq foydalanish, energiyalar uchun to'lovlarning kamayishi, energiya samaradorligiga qilingan sarmoyalar, ish o'rinlarining yaratilishi va quvvatlarga sarflanadigan byudjet mablag'larning iqtisod qilinishidan manfaat ko'radilar.

Kelishuv ishtirokchilari quyidagi umumiy maqsadni baham ko'radilar: o'z fuqarolarini barqaror ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy nuqtai nazardan barqarorlik bilan farq qiladigan muhitni shakllantirish va resurslarning tugashi va iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq global muammolarni hal qilishga o'z hissalarini qo'shish.

BATAFSIL MA'LUMOTLAR UCHUN

Veb

www.eumayors.eu

http://en.wikipedia.org/wiki/Covenant_of_Mayors

Barcha chop qilingan materiallar Rus tilida mavjud bo'ladi va boshqa milliy tillarda ham mavjud bo'lishi mumkin.

Aloqa manzili

Tatiana Shakirova

tatiana.shakirova@eumayors.eu